

Date: 29th May-2025

**“TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA UNGA
TA’SIR QILUVCHI OMILLAR”**

O’rinova Nilufar Muhammadovna

FarDU dotsenti

urinova.nm@mail.ru

Qodirjonova Madinabonu Akmaljon qizi

Farg’ona davlat universiteti

Pedagogika tarixi va nazariyasi mutaxassisligi 1-kurs magistri

madinaqodirjonova52@gmail.com

Kalit so’zlar: tanqidiy fikrlash, pedagogik shart-sharoitlar, da’vat bosqichi, anglash bosqichi, fikrlash bosqichi, interfaol metodlar, aqliy hujum, insert metodi, klarer usuli, mustaqil fikrlash, o’quv jarayoni.

Zamonaviy ta’lim tizimida o’quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarga tanqidiy yondashuvi, mavjud bilimlarni tahlil qilish va baholash qobiliyatini shakllantirish eng muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda dunyo bo’yicha ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotganini ko’rsatadi. Tanqidiy fikrlash o’quvchilarning faqat bilim olishiga emas, balki o’z fikrini asoslash, dalillarni tahlil qilish va turli g’oyalar bilan taqqoslab qaror qabul qilishiga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichning o’ziga xos vazifalari, metod va yondashuvlari mavjud bo’lib, ular pedagogik shart-sharoitlar bilan bevosita bog’liq. Bu jarayonda o’qituvchining roli, o’quvchilarga yaratilgan ochiq muloqot muhiti, ularning faol ishtiroki va o’z fikrini bimalol ifoda etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda olimlarning fikr-mulohazalari, ilmiy-metodik yondashuvlari asos bo’lib xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash – o’qish predmeti emas, balki o’qitish natijasidir. D. Halpernga ko’ra, tanqidiy fikrlash bu - biror g’oyani chuqur anglash, uni boshqa g’oyalar bilan solishtirish, dalillar asosida tahlil qilish va mustaqil qarorga kelishdir [1]. L. Elder va R. Paul esa tanqidiy fikrlashni shaxsning o’z fikrlash jarayonini baholay olish va uni takomillashtira olish qobiliyati sifatida izohlaydi [2].

Birinchi bosqich – da’vat bosqichi deb ataladi. Bu bosqichda, A. A. Ataxanovning fikricha, interfaol metodlardan, xususan, “Aqliy hujum” usulidan foydalanish o’quvchilarni fikrlashga jalb qiladi, mavjud bilimlarni yuzaga chiqaradi va yangi bilimlarni qabul qilishga tayyorlaydi [7]. Ushbu bosqichda o’qituvchi imkon qadar kam gapirib, o’quvchi talabalar ko’proq fikr bildirishi kerak.

N. M. Mahmudov bu bosqichda lider o’quvchining faol ishtirokini alohida ta’kidlab, ularning boshqa o’quvchilarni ham jarayonga jalb qilishdagi rolini e’tirof etadi [6]. Ushbu bosqich davomida o’qituvchi



Date: 29th May-2025

imkoni boricha kam gapirib, talabalarga ko'proq gapirishga imkoniyat yaratishi muhim. Lider talabaning asosiy vazifasi yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi sifatida chiqishi va sinfda yoki guruhda fanlarni to'liq o'zlashtirmaydigan, o'quv jarayonida sust, fikrlash qobiliyati etarli rivojlanmagan talabalarning fikrlarini ham diqqat bilan tinglashdan iborat. Bu bosqichda pedagogik faoliyatning bir nechta muhim turlari amalga oshiriladi. Birinchidan, ta'lim oluvchi mavzu to'g'risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa uni o'z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko'rib chiqiladigan mavzu haqida o'ylay boshlashga majbur etadi. Shuni doimo esda tutish kerakki, agar axborot o'quvchi talabaga unda mavjud bo'lgan bilimlar majmuiy bilan bog'lanmasdan taklif etilsa, tez orada unitilib ketadi. Chunki ta'lim jarayoni yangi bilimlarni egallash va to'plash jarayonidir.

Ikkinchi bosqich – anglash bosqichidir. M. Lipman fikricha, bu bosqichda o'quvchi yangi axborot bilan muloqatga kirishib, uni anglab yetadi, tahlil qiladi va mavjud bilimlar bilan bog'laydi [4]. D. Halpern ushbu bosqichda Insert metodi (interaktiv belgilash) orqali o'qish jarayonida o'quvchilar o'z fikrini belgilab borish orqali tahliliy qobiliyatlarini rivojlantirishini ta'kidlaydi [1]. A. Fisher bu bosqichda tanqidiy savollar, dalil va xulosalar ustida ishlash orqali chuqur tahlil qilish shakllanishini aytadi [3]. Bu bosqichda talaba yangi axborot yoki fikrlar bilan muloqatga kirishadi. Bu muloqat matnni o'qishi, filmni ko'rish, nutqni tinglash yoki tajribalar o'tkazish kabi shakllarda bo'lishi mumkin. Bu bosqich o'qitish jarayonida o'qituvchining talabalarga eng kam ta'sir qiladigan bosqichidir. Aynan bosqichda o'quvchi talaba mazkur ishda muvaffaqiyatli va faol ishtirok etishi kerak. O'qitishning shunday strategiyalari borki, ular doim faoliyati sust, fikrlash qobiliyati etarli darajada rivojlanmagan o'quvchi talabalarning faolligini yuqori darajada ushlab turadi.

Uchinchi bosqich – fikrlash bosqichidir. J. Dyuning fikricha, bu bosqichda o'quvchilar yangi bilimlarni mavjud bilimlari bilan bog'lab, ularga mustaqil munosabat bildiradilar va ularni o'z hayotiy tajribalari bilan uyg'unlashtiradilar [5]. N. M. Mahmudov esa bu bosqichda talabalar o'z fikrini asoslab, mustaqil qaror qabul qilishga o'rganishini ta'kidlaydi [6]. Bunda o'quvchilar yangi bilimlarni musahkamlaydilar, yangi tasavvur va tushunchalarni avval mavjud bo'lganlariga qo'shib, o'zlashtiradilar. Aynan fikrlash bosqichida bir nechta muhim maqsadga erishish yo'llari rejalashtiriladi. Birinchi navbatda o'quvchi talabalar yangi fikr va axborotlarni o'z so'zlari orqali ifodalashga harakatlar qilishlari kerak. Bu yangi tasavvurlarni va tanqidiy fikrlarni hosil qilish uchun juda zarur.

Tanqidiy fikrlashning da'vat bosqichida o'quvchi yangi bilimlarni mustaqil tanlagan maqsad yo'lida ishlatadi. Anglash bosqichida yangi axborotni mavjud bilimlar bilan bog'laydi. Fikrlash bosqichi esa mazmunni chuqur anglash va uni qayta ishlashni talab qiladi. A. Ataxanov fikricha, bu uch bosqichli model o'quvchining faol, mustaqil va tahlil qiluvchi shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi [7].

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlar zarur. N. M. Mahmudov ularni quyidagicha belgilaydi:

1. Mustaqil fikrlashga imkon yaratish va o'quvchini diqqat bilan tinglash;
2. Turli fikr va g'oyalarni saralash, baholash;

Date: 29th May-2025

3. O'quvchilarning o'z fikrini ochiq ayta olishiga ishonitirish;
4. Tanqidiy fikr yuritishga qodir ekaniga ishonch hosil qilish;
5. Tanqidiy fikrlashning qadrlanishiga erishish [6].

Fikr almashishda M. Lipman fikricha, o'quvchilarning bir-birini tinglashi, fikrni majburlab qabul qildirmaslik, muhokamada xolis bo'lishi talab etiladi [4].

Klasterlar tuzish – tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali metodlardan biri bo'lib, A. Fisher uni erkin va tizimli fikr yuritishni rivojlantiruvchi vosita sifatida ko'rsatadi [3]. Klaster metodining mahalliy tajribadagi tatbiqi bo'yicha G.T.Jumaniyozova o'quvchilarda tanqidiy yondashuv va muammoni hal etish ko'nikmasini rivojlantirishini ta'kidlaydi [8]. "Klaster" lotincha so'z bo'lib, "g'uncha bog'lam" ma'nosini anglatadi. Klaster (axborotlarni yoyish) metodi, pedagogik strategiya bo'lib, talabaning u yoki bu mavzu bo'yicha erkin va bimalol o'ylashiga yordam beradi. U faqat g'oyalar orasidagi bog'lanishlarning fikrlashni ta'minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. U fikrlashning oddiy shakli emas, balki miya faoliyati bilan bog'lanadi.

Klasterlar tuzish qoidasi quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

- Aqlingizga kelgan barcha fikrlarni yozib oling. Bu fikrlarni muhokama qilmang, shunchaki, yozib olavering.
- Xatni (matnni) kechiktiradigan imlo va boshqa omillarga ham e'tibor bermang.
- Sizga berilgan vaqt nihoyasiga etmagunga qadar yozishdan to'xtamang. Miyangizga fikr kelishi to'xtab qolsa, toki yangi fikrlar kelgunga qadar qog'ozda nimalarnidir chizib o'tiring.
- Imkoni boricha bog'lanishi mumkin bo'lgan g'oyalarni tizib chiqing. G'oyalarning oqimi sifatida va ular orasidagi aloqalarni chegaralab qo'ymang.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'rganilayotgan voqea (hodisa, qoida) yoki faktga o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish bo'lib, ularda savol berish zaruriyatini keltirib chiqarishdir. Keyin berilgan savollarni ma'lum faraz (gipoteza)lar shaklida ifodalab, ularni tekshirishni amalga oshirishga harakat qilinadi"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Halpern, D. F. (2003). Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
2. Paul, R., & Elder, L. (2006). Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Pearson Education.
3. Fisher, A. (2001). Critical Thinking: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Lipman, M. (2003). Thinking in Education. Cambridge University Press.
5. Dewey, J. (1933). How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. D.C. Heath and Company.
6. Махмудов Н.М. (2019). Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning metodologik asoslari. Toshkent: TDPU.



Date: 29th May-2025

7. Атаханов А.А. (2021). Interfaol metodlar orqali talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish. Toshkent: O'qituvchi.
8. Jumaniyozova G.T. (2020). "Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar". Oliy ta'limda innovatsiyalar jurnali, №4.

